

NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING KASBIY MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

Xalqaro Nordik Universiteti

Narbekova Zuxra Tadjibaevna

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nofilologik oliy ta'lim muassasalarida chet tilini kasbiy yo'naltirilgan holda o'qitishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda YuNESKO tomonidan ilgari surilgan ta'limning asosiy tamoyillari asosida zamonaviy ta'lim paradigmasi yoritilib, chet tilini o'qitish jarayonida kompetensiyaviy va fanlararo integratsiyalashgan yondashuvlarning ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, chet tilining kasbiy muloqot vositasi sifatidagi o'rni, iqtisodiy yo'nalish talabalari kasbiy malakalarini shakllantirishdagi didaktik va metodik imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari nofilologik yo'nalishlarda chet tilini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.*

Kalit so'zlar. *nofilologik oliy ta'lim, chet tilini o'qitish, kasbiy yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, fanlararo integratsiya, kasbiy malaka, kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo muloqot.*

YuNESKO Bosh konferensiyasi tavsiyasiga binoan tashkil etilgan Ta'lim bo'yicha xalqaro komissiya ta'limning kelajakdagi taraqqiyotiga oid to'rtta asosiy prinsipni ilgari surdi: birgalikda yashashni o'rganish, bilim olishni o'rganish, mehnat qilishni o'rganish va yashashni o'rganish. Ushbu yondashuvlar hamkorlik, uzluksiz ta'lim, kasbiy kompetensiyalar va shaxsiy taraqqiyotga yo'naltirilgan.¹

Bunday maqsadli yo'nalganlik, shubhasiz, oliy ta'lim muassasasidagi kasbiy tayyorgarlikka, jumladan, tilga oid turkumdagi fanlarni o'rganishga taalluqli bo'lib,

¹ Delors, J. (1996). *Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century.* Paris: UNESCO Publishing.
[O'zbekcha tarjimada: "Ta'lim: ichimizdagi xazina. 21-asrda ta'lim bo'yicha xalqaro komissiya hisobotidan" – YuNESKO nashriyoti, Parij, 1996.]

ularning barchasi birgalikda tizim sifatida til to'g'risida yaxlit umumiy tasavvurni shakllantirishi, turli darajali hodisalar sifatida, nutqda turli vazifalarni bajaruvchi tilga oid birliklar to'g'risidagi tasavvurlarning asosini shakllantirishi kerak². Hozirgi vaqtda muloqotning ilmiy malakalarini egallagan, mustaqil, to'liq javobgarlik bilan nostandart qarorlarni qabul qilishga qobiliyatli mutaxassislarni tayyorlash zarurati yuzaga keldi.

Oliy ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitish har doim jamiyatning ijtimoiy-maqсадli ehtiyojlariga yo'naltirilgan. Globallashuv va mehnat bozorining hozirgi sharoiti bu yo'nalishga yangi talablar qo'ymoqda. Zamonaviy o'quv dasturlari ilgari qo'llanilgan yondashuvlardan farqli o'laroq, jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini bajarishga qaratilgan bo'lib, bu nafaqat yo'nalishni belgilaydi, balki oliy ta'lim talablaridan kelib chiqqan holda amaliy yechimlarni ham taklif etadi.

Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalariga chet tilini o'qitishdan maqsad talaba o'zining bo'lajak kasbiga oid matnni lug'atsiz o'qish va tushunishga o'rgatishdan iborat. O'qish insonning kommunikativ faoliyati bo'lib, verbal muloqotdan birini ta'minlaydi. O'qish talabani ma'lumot olishga yo'llaydi va tadqiqotchi S.K.Folomkina³ ta'lim maqsadiga ko'ra o'qishni uch turga ajratadi. Chet elning ta'lim metodikasida 30 dan ortiq o'qish turlari mavjud. M.A.Grigoryeva⁴ o'z tadqiqotida kasbga yo'naltirilgan o'qishni o'rgatish orqali "Chet tili" o'quv predmetini kasbiy ahamiyatli fanga aylantirish imkonini yoritib bergan. "Chet tili" ta'limi soha bo'yicha kompetentli mutaxassis tayyorlashga imkon yaratadi, deb yozgan.

Oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitishda yozuvni o'rgatish maxsus amaliy maqsad hisoblanmaydi, balki talabalar chet tilini amaliy egallashlarida yozuvni mashq sifatida e'tirof etishadi. Qator olimlar tomonidan yozuvni o'rgatish muammolari o'rganib chiqilgan, ya'ni yozuv nutqiy faoliyatning mustaqil turi

² Qurbonova, M.X. (2022). Kasbiy ta'limda chet tilini o'qitishning zamonaviy tendensiyalari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 196 b.

³ Фоломкина, С.К. (1981). *Обучение чтению на иностранном языке в высшей школе.* — Москва: Высшая школа, 176 с.

⁴ Григорьева, М.А. (2004). *Профессионально-ориентированное обучение чтению на иностранном языке.* — Москва: Флинта, 152 с.

maqomida fikrni yozma ifodalashga qaratiladi⁵. Til materialini egallashda vosita va matnni tushunish nazorat qilish usuli hisoblanib, kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishda referat, annotatsiya, esse, mustaqil ishni yozish tavsiya etiladi. A.A.Veyzening fikricha, referat aslida berilgan matndagi ma'lumot mazmunini qayta ishlash natijasida yozma bayon etishdir⁶.

Chet tilini o'qitish jarayonida ijtimoiy-madaniy komponent shaxsni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. U nafaqat til kompetensiyasini shakllantirishga, balki boshqa madaniyat vakillarining qadriyatlarini anglash orqali talabanning madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Til o'rganish jarayonida talaba xorijiy madaniyatni o'z milliy qadriyatlari bilan qiyoslash orqali umumiy madaniy tafakkurini boyitadi va global anglash asosida ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanadi.

Kasbga yo'naltirilgan o'qitish termini chet tilini nofilologik oliy ta'lim muassasida mutaxassislikka oid adabiyotlarni o'qish, kasbiy terminologiyani o'rganish, kasbiy faoliyat doirasida muloqotga yo'naltirilgan o'qitishni ifodalash uchun qo'llanadi. Mamlakatimizdagi OTMlarda chet tilini o'qitish o'ziga xos xususiyatga ega hisoblanib, professor J.J. Jalolov tomonidan chop etilgan darsliklar va monografiyada chet tili materialini o'qitish mazmuniga aniqlik kiritilgan, chet tilini o'qitish mazmunini shakllantirish metodologiyasi ishlab chiqilgan. Chet tilini o'qitish mazmuni mahsulot sifatida til materialini va nutq faoliyati turini egallash uchun moslab nutq tematikasini tanlash talablari asosida ishlab chiqilgan⁷.

Axborot texnologiyalari va Internet rivojining jadal sur'atlari tashqi iqtisodiy faoliyatga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Yangi texnologiyalar nafaqat ish faoliyatini, balki bilish, muloqot va turmush tarzini ham tubdan o'zgartirmoqda. Natijada, davlatlararo biznes yuritish shakllari o'zgarib, ko'plab fuqarolar hamda

⁵ Халилова, Н.И. (2021). Chet tilida yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda metodik yondashuvlar // *Innovatsion ta'lim texnologiyalari* ilmiy jurnali, 4(2), 56–59.

⁶ Вейзе, А.А. (1989). *Обучение письму на иностранном языке в неязыковом вузе*. – Москва: Высшая школа, 142 с.

⁷ Jalolov, J.J. (2012). *Chet tilini o'qitish metodikasi*. – Toshkent: «O'qituvchi», 296 b.

tadbirkorlar an'anaviy chegaralar va protokollardan chetga chiqib, global maydonga faol ravishda kirib kelmoqdalar.

Internetning jadal rivojlanishi davlat va xususiy sektorda tezkor axborot almashinuviga kuchli ehtiyojni yuzaga keltirdi. Bunday sharoitda xalqaro hamkorlik uchun raqobatbardosh va malakali mutaxassislar tayyorlash masalasi tobora dolzarb tus olmoqda. Ishtirokchilar tomonidan tashqi savdo faoliyatini tashkil etishning dolzarb muammolari muhokamasi doirasida bir qator ustuvor vazifalar belgilab olindi, ulardan biri, "jahon iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlar darajasiga javob beradigan standartlar va o'qitish texnologiyalari asosida mutaxassislarni tayyorlash amaliyotiga joriy etish"⁸ edi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida malakali mutaxassislar va xalqaro darajadagi iqtisodchilarni tayyorlash bugungi kunda milliy iqtisodiy muammolarni hal etishning muhim sharti sifatida e'tirof etilmoqda. Iqtisodiy inqirozlarning kelib chiqishi nafaqat ob'ektiv omillar, balki iqtisodiy jarayonlarga doir bilim yetishmasligi kabi subyektiv sabablar bilan ham bog'liq. Shu bilan birga, mintaqaviy taraqqiyotning muvaffaqiyati yetarli kasbiy salohiyatga ega mutaxassislar tayyorlanishini talab etadi, bu esa milliy iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi⁹.

Globalashuv sharoitida iqtisodchilar uchun xorijiy tilni bilish mehnat bozorining asosiy talablaridan biri bo'lib, "Chet tili" fani mazmuni kasbiy muloqot va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilishi lozim. Bu esa ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlagan holda, raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirishga xizmat qiladi.

Nofilologik yo'nalishdagi oliy ta'limda chet tilini o'qitishning amaliy maqsadi talabalarga xorijiy iqtisodiy jarayonlar bilan tanishish imkoniyatini berish va shu orqali ularning iqtisodchi sifatida kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun sharoit

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-60-sonli qarori. (2022). *Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi* va uni 2022–2026 yillarda amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida. T.: Lex.uz.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-60. (2022). *Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi*. – Lex.uz. ; Nazarov, Sh. Sh. (2021). *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar va tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari*. – Toshkent: Iqtisodiyot.

yaratishdan iborat. I.M. Biramning ta'kidlashicha, "talabalar chet tilini, birinchi navbatda, mutaxassislik bo'yicha ma'lumot olish vositasi sifatida o'zlashtiradilar"¹⁰.

Chet tilini o'qitishning umumiy maqsadi talabalarda tilni muloqot vositasi sifatida tushunish, uning ilmiy-ijtimoiy xususiyatlarini anglash va uni ijtimoiy hodisa sifatida baholash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish tilning axborot uzatish imkoniyatlari, uning xalq va jamiyat tarixi bilan bog'liqligi, lug'at boyligini oshirish mexanizmlari, chet tiliga xos lingvistik va madaniy elementlar bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi.

Bu jarayonda o'quv faoliyati amaliy yo'nalishga ega bo'lishi, iqtisodiy manbalar va kasbiy kontekstga asoslanishi kerak. Tilni o'rganish jarayoni nafaqat lingvistik bilimlarni, balki o'rganilayotgan mamlakatning urf-odatlarini, madaniyati va an'analarini haqidagi ijtimoiy-madaniy bilimlarni ham o'z ichiga olishi kerak.

Shuning uchun zamonaviy ta'limda uchta asosiy maqsad - ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy maqsadlarni uzviy birlikda, kompetensiyaviy yondashuv asosida amalga oshirish zarur. Aynan kompetensiya fenomeni zamonaviy chet til o'qitish tizimida global tendensiyalarni aks ettiruvchi asosiy metodologik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shu boisdan chet tilini o'rganish oliy ta'limda shunchaki til bilimlarini egallash emas, balki kasbiy yo'naltirilgan, aniq maqsad va vazifalarga asoslangan chuqur kurs sifatida qaralishi zarur. Tilni o'rgatish emas, uni o'zlashtirish mumkin — degan g'oyani I.M. Byram alohida ta'kidlaydi¹¹. Til vositalaridan nutqiy faoliyatda samarali foydalanish esa faqat faol va mustaqil ta'lim orqali shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogning asosiy vazifasi — talabalarda kasbiy fanlar bilan uzviy bog'langan holda mustaqil o'rganishga ichki motivatsiyani uyg'otishdir. Bu ayniqsa nofilologik yo'nalishdagi ta'lim muassasalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

¹⁰ Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. – Clevedon: Multilingual Matters.

¹¹ Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. – Clevedon: Multilingual Matters.

Chet tilidagi iqtisodiy loyihalarda ishtirok etish talabalarni til o'rganishga rag'batlantirib, ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Nofilologik yo'nalishlarda chet tilini o'qitish samaradorligi uning ixtisoslik fanlari bilan integratsiyasiga bevosita bog'liq. Hozirgi vaqtda chet tili mazmuni va metodikasining iqtisodiyot sohasi talablariga moslashtirilishi yetarlicha tadqiq etilmagan. Til va kasbiy fanlar o'rtasidagi integratsiya esa kognitiv qiymati yuqori bo'lgan, kommunikativ kompetensiyani rivojlantiruvchi moslashuvchan ta'lim jarayonini taqozo etadi.

Hozirgi oliy ta'lim bosqichida chet tillarini o'qitishning muhim xususiyati kompyuterlashtirish, axborotlashtirish jarayoni hisoblanadi. Zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida internet axborot vositasidan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muhim omiliga aylangan. Undan samarali foydalanish chet tillarini bilishni talab etadi. Shu sababli, internet savodxonligi va til kompetensiyasi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, raqamli jamiyatda faol ishtirok etishning asosiy shartlaridan biridir. Hozirgi bosqichda iqtisodchining kasbiy malakasini shakllantirish jarayonida chet tilining rolini o'rganish maqsadida oliy ta'limda chet tillarini o'qitish jarayonini har tomonlama tahlil qilishimiz zarur deb hisoblaymiz. Mazkur jarayon tizimli yondashuv asosida chet tilida bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli ta'lim faoliyati sifatida qaraladi.

Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish metodikasi ilmiylik, faollik, onglik, izchillik, ketma-ketlik, tushunarlik, talabning individual xususiyatlarini e'tiborga olish kabi didaktik tamoyillarga tayanadi. Chet tilini egallashning psixologik qonuniyatlaridan kelib chiqib, ta'limning har qaysi bosqichi uchun yetakchi maqsad belgilangan. Ta'limning yakuniy maqsadi malakalarni hosil qilishdir. Kasbiy malakani shakllantirishga bilim va ko'nikmani egallash orqali erishiladi. Nemis tili fani bo'yicha darsliklarni o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularda berilgan mavzularning xilma-xilligi, ya'ni til o'rganilayotgan mamlakatdagi yoshlarning hayoti, urf-odati, milliy bayramlari va mashhur kishilari haqida batafsil ma'lumotlarning berilishi ham bo'lajak mutaxassislarning dunyoqarashini yanada kengayishiga zamin yaratar ekan.

Tadqiqotda chet tilini o‘qitish tamoyillari amaliy maqsadlarga yo‘naltirilgan holda tahlil qilinadi:

lingvistik va iqtisodiy tayyorgarlikni uyg‘unlashtirish tamoyili “Chet tili” fanining ixtisoslik fanlari bilan integratsiyasini nazarda tutadi. Bu yondashuv talabaniing intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda kasbiy bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi;

bo‘lajak iqtisodchi uchun kompetensiyalar majmuasining uzviyligi muhim ahamiyatga ega. U kasbiy tayyorgarlik bilan birga, mustaqil qaror qabul qilish, madaniy muhitda muloqot, texnologiyalarni egallash, uzluksiz ta’limga intilish va bir nechta tilni bilishni ham qamrab oladi.

Demak, nofilologik yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalar kasbiy malakalarini rivojlantirish zamonaviy oliy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda chet tilini kasbiy maqsadlarga yo‘naltirib o‘qitish, fanlararo integratsiyani ta’limga tatbiq etish, innovatsion yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarni real mehnat bozoriga tayyorlash imkoniyati kengaymoqda. Natijada, kasbiy faoliyatga tayyor, kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarga ega mutaxassislar shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jalolov J.J. Chet tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
2. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997.
3. Folomkina S.K. Обучение чтению на иностранном языке. – Москва: Просвещение, 2005.
4. Grigoryeva M.A. Профессионально ориентированное обучение иностранным языкам. – Москва: Высшая школа, 2010.
5. Veyze A.A. Методика обучения письменной речи на иностранном языке. Москва: Просвещение, 2008.